



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafuz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KASBGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI



Isabekova Dilafuz Shermirzayevna
 Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası
 katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati yoritilgan. Unda bolalarni kasblar olami bilan tanishtirish, ularda mehnatsevarlik, kasblarga hurmat, ijtimoiy faollik hamda mehnat madaniyatini shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, kasbga qiziqishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy va pedagogik omillar, o'yin, muloqot, amaliy faoliyat hamda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada mazkur yo'nalishning jamiyat taraqqiyoti, ta'lim sifati va kelajak kadrlar salohiyatini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi bolalar, kasbga qiziqish, kasbga yo'naltirish, ijtimoiy-pedagogik zarurat, mehnat madaniyati, ijtimoiy faollik, o'yin faoliyati, amaliy faoliyat, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article examines the socio-pedagogical necessity of developing career interest among senior preschool children. It highlights the importance of introducing children to the world of professions and fostering diligence, respect for occupations, social activity, and work culture. The study also analyzes social and pedagogical factors influencing the development of career interest, as well as the opportunities provided by play, communication, practical activities, and digital technologies. The role of this direction in social development, improving educational quality, and shaping the future workforce potential is scientifically substantiated.

Key words: preschool education, senior preschool children, career interest, career guidance, socio-pedagogical necessity, work culture, social activity, play activity, practical activity, digital technologies.

Аннотация: В данной статье раскрыта социально-педагогическая необходимость развития интереса к профессиям у детей старшего дошкольного возраста. Освещены вопросы ознакомления детей с миром профессий, формирования у них трудолюбия, уважения к профессиям, социальной активности и культуры труда. Также проанализированы социальные и педагогические факторы, влияющие на развитие профессионального интереса, а также возможности игры, общения, практической деятельности и цифровых технологий. Научно обоснована роль данного направления в развитии общества, повышении качества образования и формировании кадрового потенциала будущего.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста, интерес к профессиям, профориентация, социально-педагогическая необходимость, культура труда, социальная активность, игровая деятельность, практическая деятельность, цифровые технологии.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida belgilangan maktabgacha ta'lim-tarbiyaning asosiy prinsiplari hamda 39-moddasida ko'rsatilgan jamiyatda kadrlar ehtiyojini shakllantirish talablariga muvofiq, bolalarda turli kasblar haqida boshlang'ich bilim, ijobiy munosabat va qiziqishni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar va didaktik vositalarni boyitish, tarbiyachilarning maxsus tayyorgarligini kuchaytirish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli va interaktiv texnologiyalar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son <https://lex.uz/docs/-4646908>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"² qarorida maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirish, shuningdek, kasbga yo'naltirish jarayonini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun yagona metodik tizimni takomillashtirish, tarbiyachilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy ta'lim resurslarini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, bolalarning ijodiy va ijtimoiy faolligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda raqamli texnologiyalarni mazmunli integratsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"³ qarori talablariga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbga qiziqishni shakllantirishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi muhit va metodik ta'minotni yaratish zarur. Bunda kasbga yo'naltirish komponentlarini ta'lim muhitiga uyg'un integratsiya qilish, yosh xususiyatlariga mos o'yinlar, didaktik materiallar va ko'rgazmali vositalarni kengaytirish, individual yondashuv asosida kasbga qiziqishni aniqlash va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiyachilarning pedagogik diagnostika va monitoring ko'nikmalarini mustahkamlash, rivojlantiruvchi markazlarda kasblarni aks ettiruvchi real hayotiy muhit elementlarini boyitish hamda bolalarda kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda zamonaviy va hududiy mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴ hamda 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat-sevarlik, kasblarga hurmat, ijtimoiy faollik va mehnat madaniyatini shakllantirish orqali ularning jamiyat hayotiga ongli tayyorgarligini ta'minlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni izchil tashkil etish bolalarning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi hamda kelgusidagi kasbiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishda ijtimoiy va pedagogik zaruriyat vazifalari:

Maktabgacha yosh davrida kasbga qiziqishni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib etish va chuqur anglatish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish masalasini ustuvor pedagogik vazifa sifatida samarali integratsiya qilish.

Bolalarda kasblar haqida ijtimoiy ahamiyatga ega, real va zamonaviy tasavvurlarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Jamiyatda kadrlar ehtiyojini shakllantirish.

Maktabgacha va umumiy ta'lim bosqichlarida kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish.

Yosh avlodda kasb tanlashga ongli yondashuv hamda mehnat madaniyatini shakllantirish ishlarini uzviylik asosida tashkil etish.

Mehnat madaniyatini shakllantirish.

Mehnat jarayonida ijtimoiy ko'nikmalarni (hamkorlik, mas'uliyatni bo'lishish, jamoada ishlash) shakllantirish metodikasini takomillashtirish.

Zamonaviy jamiyat talablari asosida mehnat madaniyatini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirish.

Bolaning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash hamda rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni amaliyotga to'liq joriy etish.

Pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik yondashuvlarni barcha bolalarning individual xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirish.

Pedagogik metodlarni tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va rivojlanish darajasiga moslashtirish.

1-rasm: Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqtirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020-yildagi 802-son <http://lex.uz/docs/5179335?ON-DATE=26.01.2024>

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020-yildagi 802-son <http://lex.uz/docs/5179335?ON-DATE=26.01.2024>

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020-yildagi 802-son <http://lex.uz/docs/5179335?ON-DATE=26.01.2024>



Mazkur jarayonda kasblarga hurmat va mehnat qadriyatlarini singdirishda amaliy faoliyat bilan nazariy tushunchalar uyg'unligini ta'minlash, ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan o'yin va mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mehnat madaniyatini shakllantirishda oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, mehnat faoliyati orqali hamkorlik, muloqot va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, bolalarda ichki motivatsiyani kuchaytirish va rag'batlantirishning samarali usullaridan foydalanish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya, ijtimoiylashtirish hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifalarini amalga oshiruvchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishda ijtimoiy va pedagogik zaruriyat omillarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning ustuvor yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamiyatda kadrlar ehtiyojini shakllantirish

Abdunazarova N. F. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish (HRM) tizimini joriy etish", kadrlar salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar hamda kadrlar siyosatini shakllantirish masalalarini yoritgan.

Omanova G. A. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini boshqarish menejmentini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Valiyeva F. R. maktabgacha ta'limni boshqarish tizimida rahbar kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashning metodologik asoslarini yoritgan.

Jumabekova D. Sh. tizimdagi kadrlar muammosini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib, pedagogik kompetensiya va mahorat masalalarini tadqiq etgan.

Xalikova U. M. pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha uslubiy ishlar olib borgan.

Mehnat madaniyatini shakllantirish

Qodirova F. R. maktabgacha ta'limda mehnat tarbiyasining metodologik asoslarini yaratgan olimlardan biridir. Uning ishlarida bolalarning mehnat turlari (qo'l mehnati, o'z-o'ziga xizmat) hamda mehnat jarayonidagi madaniyat masalalari tahlil qilingan.

Kayumova N. N. maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqqan.

Haydarova M. mehnat tarbiyasini tashkil etish va bolalarni asbob-uskunalar bilan ishlash madaniyatiga o'rgatish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Sodiqova Sh. A. mehnat faoliyati orqali bolaning shaxsiy sifatlarini, jumladan mehnatsevarlik va mas'uliyatni shakllantirish masalalarini yoritgan.

Babaeva D. R. bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda mehnatning ahamiyati hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida mehnat madaniyatining o'rnini tadqiq qilgan.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirish

Qodirova F. R. maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatishning pedagogik tizimini takomillashtirish masalalarini o'rgangan.

Shodmonova Sh. S. bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Babaeva D. R. bolalar nutqini o'stirish metodikasini tadqiq qilgan.

Kayumova N. M. maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Sh. A. Vasil'yevna O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan.

Kasbga qiziqishning jamiyat va ta'lim tizimi uchun ahamiyati shundaki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirish jamiyat hamda ta'lim tizimi uchun bir necha jihatdan muhim hisoblanadi.

*Birinchi*dan, bu jarayon bolalarning shaxs sifatida kamol topishiga hamda kelajakdagi kasbiy yo'nalishini ongli tanlash qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

*Ikkinchi*dan, bola maktabga tayyorgarlik davrida turli kasb va faoliyat turlari bilan tanishish orqali ijodiy hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

*Uchinchi*dan, jamiyat uchun bu kelajakdagi malakali kadrlarni tayyorlashning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Ya'ni, bolalarda erta yoshdan kasbiy qiziqishlarni shakllantirish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbga qiziqish shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va pedagogik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy omillarga oila muhiti, ota-onaning munosabati, jamiyatdagi kasblar haqidagi tasavvurlar, muloqot muhiti hamda bola atrofidagi mehnat faoliyatini kuzatish kiradi. Masalan, ota-onaning o'z kasbiga mehr bilan yondashuvi bola uchun ilhomlantiruvchi omil bo'lishi mumkin. Pedagogik omillar esa maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachilarning kasblar haqidagi ma'lumot berish usullari, o'yin va mashg'ulot shakllarini tanlashi, bolalarning kasblarni amalda kuzatish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi. Tarbiyachining bolalardagi qiziqishlarni aniqlashi va ularni qo'llab-quvvatlashi alohida ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishda o'yin, muloqot va amaliy faoliyat samarali vositalar hisoblanadi. Rolli o'yinlar orqali bolalar turli kasblarning vazifalarini his etadilar va ularni bajarib ko'radilar. Masalan, "doktor", "muhandis", "oshpaz" kabi o'yinlar bolalarda kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Muloqot jarayonida bola pedagoglar va tengdoshlari bilan fikr almashadi, savollar beradi hamda yangi bilimlarga ega bo'ladi. Amaliy faoliyat davomida esa kichik mahorat darslari, loy, qog'oz va boshqa qulay materiallar bilan ishlash orqali bolalar kasblarning real faoliyat turlari bilan tanishadilar. Bu esa qiziqish va amaliy tajribani mustahkamlaydi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar va kasblar turlarining ko'payishi bolalarni erta kasbga yo'naltirishni taqozo etadi. Ota-onalar hamda jamiyatning bolalar iste'dodini erta aniqlashga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Raqamli savodxonlik esa zamonaviy hayotiy ko'nikmalardan biriga aylangan. Interaktiv va ko'rgazmali ta'lim usullaridan foydalanish bolalarning diqqatini jalb etib, ularning kasblarga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Raqamli platformalar orqali bolalar turli kasblar haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rganadilar. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ilm-fan va ta'lim sohalarida keng imkoniyatlar yaratib, ta'lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda tarbiyachi-pedagoglar faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni kasbga yo'naltirishning muhim vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishda o'yin, muloqot, amaliy faoliyat hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Xususan, rolli o'yinlar jarayonida bolalar turli kasblarning mazmuni, vazifalari va jamiyatdagi o'rni haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ldilar. "Shifokor", "muhandis", "oshpaz", "quruvchi" kabi o'yin mashg'ulotlari bolalarda kasblarga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni kuchaytirdi.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida loy, qog'oz, konstruktor va boshqa didaktik vositalardan foydalanish bolalarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi hamda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirdi. Tarbiyachi va tengdoshlari bilan olib borilgan muloqotlar esa bolalarning savol berish, fikr bildirish va jamoada ishlash malakalarini shakllantirdi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar bolalarning diqqatini jalb etib, turli kasblar haqidagi bilimlarini boyitdi. Natijada bolalarda kasb tanlashga nisbatan dastlabki ongli yondashuv, mehnatsevarlik, ijtimoiy faollik va kasblarga hurmat tuyg'ulari shakllangani aniqlandi. Umuman, kompleks pedagogik yondashuv kasbga qiziqishni rivojlantirishning samarali omili ekanligi isbotlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirish bugungi kunda ijtimoiy-pedagogik zarurat hisoblanadi. Chunki bolalarda erta yoshdan kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilash, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida o'yin, amaliy faoliyat, muloqot va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar eng samarali vositalar ekani aniqlandi.

Mazkur yo'nalishni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

*Birinchi*dan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga yo'naltirishga oid maxsus dastur va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur.



Ikkinchidan, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha malakasini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, ota-onalar bilan hamkorlik asosida bolalarda kasblarga hurmat va mehnat madaniyatini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, raqamli vositalar va interaktiv platformalardan keng foydalanish orqali bolalarning qiziqishini yanada oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori. 2019-yil 8-may. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori. 2020-yil 22-dekabr. <https://lex.uz/docs/5179335?ONDATE=26.01.2024>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4676839?ONDATE=11.12.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori. 2019-yil 13-may. <https://lex.uz/docs/-4333062?ONDATE=05.04.2022>
6. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
7. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. Directing Preschool Children to Profession at the Early Age. *Science and Innovation*, 2023, 2(B9), 500–507.
8. Qodirova, F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. Sodiqova, Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.
10. Babaeva, D.R. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. – Toshkent, 2020.
11. Kayumova, N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. – Toshkent, 2019.
12. Abdunazarova, N.F. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish masalalari. – Toshkent, 2021.
13. Valiyeva, F.R. Maktabgacha ta'limni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2020.
14. Shodmonova, Sh.S. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
15. Xalikova, U.M. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish. – Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.